



THE INFLUENCE OF AMIR TEMUR'S POLICY ON THE LIFE AND STATEHOOD OF THE BUKHARA KHANS

Oltinoy Masalievna Masalievna

Doctor of science (DSc),

Uzbekistan State University of World Languages

oltinoymasaliyeva@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Amir Temur, Bukhara khans, Abdurahman Tamkini Bukhari, "Matali al-fakhira wa matalab al-zahira", shaybanids, ashtarkhanids and manghits, Muhammad Rahim Khan, Muzaffar Khan.

Received: 28.04.26

Accepted: 29.04.26

Published: 30.04.26

Abstract: This article explores the influence of the statehood traditions established by Sahibkiran Amir Temur on the socio-political life of the later Bukhara Khanates (the Shaybanids, Ashtarkhanids, and Manghits). The author analyzes the centralized management system and military-administrative reforms formed during the era of Temur and the Temurids, as well as the significance of the "Institutes of Temur" as a legal foundation. The study highlights that the rulers of Bukhara relied on the Temurid legacy to legitimize their power and adopted the Sahibkiran model as an exemplar of governance. Furthermore, the article covers issues of continuity in architecture, culture, and economic relations. A comparative analysis is conducted on the extent to which the strategic management methods of the Temurid period were reflected in the domestic and foreign policies of the Bukhara khans. In conclusion, it is substantiated with evidence that Amir Temur's policy not only created a new school of statehood in Central Asia but also served as the foundation of the region's administrative culture for centuries. The article is intended for historians and a wide range of readers interested in the history of statehood.

AMIR TEMUR SIYOSATINING BUXORO XONLARI HAYOTI VA DAVLATCHILIGIGA TA'SIRI

Oltinoy Masaliyevna Masaliyeva

Tarix fanlari doktori (DSc)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

oltinoymasaliyeva@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Amir Temur, Buxoro xonlari, Abduraxmon Tamkiniiy Buxoriy, "Matali al-foxira va matalab al-zohira", shayboniylar, ashtarxoniyalar va mang'itlar, Muhammad Rahim xon, Muzaffar xon.

Annotatsiya: Ushbu maqola Sohibqiron Amir Temur tomonidan asos solingan davlatchilik an'analari keyingi davrlardagi Buxoro xonliklari (Shayboniylar, Ashtarxoniyalar va Mang'itlar) ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko'rsatgan ta'sirini tadqiq etadi. Muallif Temur va Temuriylar davrida shakllangan markazlashgan boshqaruv tizimi, harbiy-ma'muriy islohotlar hamda "Temur tuzuklari"ning qonunchilik asosi sifatidagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda Buxoro hukmdorlari o'z hokimiyatlarini legitimatsiya qilishda Temuriylar merosiga tayanganliklari va davlat boshqaruvida Sohibqiron modelini o'rnak sifatida qabul qilganliklari alohida qayd etilgan. Shuningdek, maqolada me'morchilik, madaniyat va iqtisodiy aloqalar sohasidagi davomiylik masalalari yoritiladi. Temuriylar davridagi strategik boshqaruv usullarining Buxoro xonlari ichki va tashqi siyosatida qay darajada aks etgani qiyosiy tahlil etilgan. Xulosa sifatida, Amir Temur siyosati nafaqat O'rta Osiyoda yangi davlatchilik maktabini yaratgani, balki asrlar davomida mintaqadagi boshqaruv madaniyatining poydevori bo'lib xizmat qilgani dalillar bilan asoslanadi. Ushbu maqola tarixchilar va davlatchilik tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИКИ АМИРА ТЕМУРА НА ЖИЗНЬ И ГОСУДАРСТВЕННОСТЬ БУХАРСКИХ ХАНОВ

Олтиной Масалиевна Масалиева

Доктор исторических наук(DSc)

Узбекский государственный университет мировых языков

oltinoymasaliyeva@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Амир Темур, Бухарские ханы, Абдурахман Тамкини Бухари, «Матали аль-фахира ва маталаб аз-захира», шейбаниды, аштарханиды и мангыты, Мухаммад Рахим-хан, Музаффар-хан.

Аннотация: Данная статья исследует влияние традиций государственности, заложенных Сахибкираном Амиром Темуром, на социально-политическую жизнь Бухарских ханств (Шейбанидов, Аштарханидов и Мангытов) в последующие периоды. Автор анализирует систему централизованного управления, военно-административные реформы, сформированные в эпоху Темура и Темуридов, а также значение «Уложений Темура» как законодательной основы. В исследовании особо отмечается, что правители Бухары опирались на наследие Темуридов для легитимации своей власти и принимали модель Сахибкирана в качестве образца государственного управления. Также в статье освещаются вопросы преемственности в архитектуре, культуре и экономических связях. Проведен сравнительный анализ того, в какой степени методы стратегического управления эпохи Темуридов отразились во внутренней и внешней политике Бухарских ханов. В заключение на основе фактов обосновывается, что политика Амира Темура не только создала новую школу государственности в Центральной Азии, но и на протяжении веков служила фундаментом культуры управления в регионе. Статья предназначена для историков и широкого круга читателей, интересующихся историей государственности.

Kirish. XIV asrda O'рта Osiyoda markazlashgan davlatga asos solgan buyuk sarkarda, davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur (1336–1405)ning tavalludiga bu yil 9 aprelda 690 yil to'ldi.

Amir Temur tarixi va faoliyati keyingi davrlardagi davlatlar siyosati, ijtimoiy, madaniy hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Buning asl sababi Amir Temur faqat boshqaruv va harbiy g'alabalar emas, balki san'at, me'morchilik, ilm-fan va ilohiy bilimlarga ham katta e'tibor qaratgan edi. Amir Temur davri arxitektura naqshlari, bayroqlar, ramziy belgilar va hatto ayrim xonlar tomonidan uning tasvirlariga o'xshash obrazlarni yashash tarziga kiritish bu faqat idrok emas, balki madaniy hamda siyosiy tajriba sifatida ham qo'llanilganini ko'rsatadi.

XVI yuzyillikdan to -XX yuzyillik boshlarigacha hukmronlik qilgan Buxoro xonlari orasida ham Amir Temurni nafaqat qudratli davlat rahbari, balki ramziy ideal va ibrat namunasi sifatida qabul qilgani tarixiy manbalar va tadqiqotlarda o'z aksini topgan.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tarixiy tahlil, manbashunoslik va retrospektiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning manba bazasini quyidagilar tashkil etadi:

Birlamchi manbalar: Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” (Sharafnomai shohiy), Abduraxmon Tamkiniiy Buxoriyning “Matali al-foxira va matalab al-zohira” (qo'lyozma) asarlari.

Zamonaviy tadqiqotlar: Azamat Ziyov, Z. Muqimov, R. Xoliqova kabi mahalliy olimlar hamda Anke fon Kyugelgen, Ron Sela, Nurten Qilich kabi xorijiy tadqiqotchilarning asarlari.

Tadqiqotda Temur davrida shakllangan markazlashgan boshqaruv tizimi hamda “Temur tuzuklari”ning qonunchilik asosi sifatidagi ahamiyati qiyosiy tahlil etiladi.

Muhokama. Buxoro xonligi davrida yaratilgan Abduraxmon Tamkiniiy Buxoriyning “Matali al-foxira va matalab al-zohira” asarida Amir Temurning nasabi, xarakteri va uning islom dini hamda ilm ahliga bo'lgan munosabati bayon etilgan. Jumladan Temurning otasini Amir Tarag'ay Bahodir e'tiqod sohibi, diyonatli, shijoatli va himmatli kishi edi, onasini u Sadri Sharianing qizi bo'lib, u affa (pokzamon) va oqila ayol bo'lishi bilan birga ilm ahliga muhabbat va hurmat bilan qarar, ibodat ahliga nisbatan ixlosli edi (Abdurahmon Tamkiniiy, Qo'lyozma), deb ta'riflaydi.

Abduraxmon Tamkiniiy Buxoriy asarida Temur haqida u bahodirona tabiati va himmati bilan, shuningdek e'tiqodi va oriyati bilan ajralib turardi. Uning himmati baland va adolati shunday ediki, o'z zamonining barcha mazlumlariga panoh bo'ldi va olimu fuzalolarga izzat-ikrom ko'rsatishni vojib deb bildi, deb yozadi. Abduraxmon Tamkiniiy Buxoriy kitobida Amir Temurning tug'ilishi va uning munajjimlar bashoratiga ko'ra taqdiri haqida hikoya qiladi. Muallif Temurning tug'ilgan vaqtidagi sayyoralar joylashuvini Iskandar Zulqarnayn va Payg'ambarimiz (s.a.v)ning tug'ilishlari bilan qiyosiy ravishda bayon etgan ya'ni har vaqt yetti sayyora Kavsa (Dalv) va Jadiy burjlarida bir-biri bilan qiron (sayyoralar yaqinlashuvi) qilsalar, shunday farzand dunyoga keladiki, unda Xudo Taoloning inoyati va dunyo tobeligi farzi (nasibasi) bordir. Ikki podshohlik muhri bashorati berildi, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, uch farzand ushbu soatda tug'ildi. Birinchisi Iskandar Zulqarnayn, ikkinchisi Hazrat Muhammad Mustafo (s.a.v), uchinchisi Amir Temur Ko'ragon. Iskandar tug'ilganidan to... Rasululloh (s.a.v)ning (tug'ilishlarigacha) sakkiz yuz yil o'tgan edi va Muhammad Mustafo (s.a.v)ning mavludi sharifidan to Amir Temur Ko'ragongacha ham sakkiz yuz yil o'tgan edi (Abdurahmon Tamkiniiy, Qo'lyozma), deb yozgan.

Buxoro xonlari, garchi Chingiziylar avlodidan bo'lsalar-da, davlatni boshqarishda "Temur tuzuklari"ni asosiy qo'llanma deb bilishgan. Abdullaxon II davrida yozilgan Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida xonning har bir yurishi va islohoti Amir Temur an'alariga qiyoslanadi. Kitobda Amir Temurni firdavsmakon, din va dunyoning qutbi degan so'zlar bilan ulug'langan (Hofiz Tanish al-Buxoriy, 1999).

Davlatchilik nuqtai nazaridan yaratilgan dastlabki umumlashgan ilmiy tadqiqot, manbahunos olim Azamat Ziyoning doktorlik dissertatsiyasi (Azamat Ziyov Xamid o'g'li, 1999) va "O'zbek davlatchiligi tarixi" (Azamat Ziyov, 2001) kitobida Amir Temur davrida tiklangan dargoh va devonlar tizimi o'z mazmunini yo'qotishiga sabab sifatida shayboniylarning aslida ko'chmanchi madaniyat vakillari bo'lganligi ko'rsatilgan bo'lsa, Z. Muqimov esa uning birinchi xonlari davrida o'zida cho'l, dasht udumlarini ham aks ettirgan o'ziga xos, o'rta asr, mutloqiy monarxiya – yakka hokimlik davlati edi (Z. Muqimov, 2007), deb xulosa qiladi.

Туркиялик олим Nurten Qilichning "Siyosiy madaniyatdagi o'zgarish: Shayboniy xon va o'zbeklarning siyosiy shakllanishi (1500-1510)" nomli tadqiqotida Shayboniylar sulolasi urug'lari o'zaro bog'liq, ammo avtonom birliklar sifatida vujudga kelgani, huquqiy sohada yaso qonuni va shariat o'rtasida muvozanat o'rnatilgani, biroq bu ikkisi o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lgan sohalarda shariatning ustunligi qabul qilingani, o'zbek tartibi o'zidan oldingi temuriylar tartibidan tubdan farq qilmaydi, faqat, yaxlit va muvofiqlashtirilgan tuzilma sifatida davomiylikni saqlab qolishi mumkinligini ko'rsatganini (Nurten Kiliç, 1999) ta'kidlaydi.

Davlat boshqaruvining ma'muriy tuzilishida ham Temuriylar davri iyerarxiyasi deyarli o'zgarishsiz saqlandi. Devonbegi, parvonachi, mushrif va tavachi kabi muhim davlat lavozimlari xonlik boshqaruvining asosini tashkil qilib, ularning vakolatlari Sohibqiron davridagi tartiblarga asoslangandi. Bu haqida olim R. Xoliqova Amir Temur va temuriylar, shuningdek shayboniylar va ashtarxoniylar davrida qaror topgan davlat boshqaruvi tartiblari deyarli o'zgarishsiz qolgan (P. Холиқова, 2005), degan xulosaga keladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, R. Xoliqova monografiyasi va maqolalarida ham Buxoro amirligidagi unvon va mansablar haqida ma'lumot berib, ular haqida adabiyotlarda berilgan ma'lumotlar juda xam chalkash va qarama-qarshiligini to'g'ri ta'kidlaydi. Haqiqatan, mansab va unvonlarning amalda qachondan boshlab joriy bo'lganligi, ularning vazifalari, o'rni va shu kabi masalalar to'laligicha hal etilgani yo'q.

Germaniyalik tadqiqotchi Anke fon Kyugelgen g'arbda qabul qilingan legitimatsiya konsepsiyasi asosida 18-19-yuzyilliklar tarixchilarining asarlarida Markaziy Osiyo mang'itlar sulolasi legitimatsiyasi (A. Кюгельген, 2004) masalasini maxsus tadqiq etib, Movarounnahr amaldorlari "geneologik" (boshqarish huquqi nasliy ya'ni meros orqali o'tadi), "elektoral"

(hokimiyatga rasmiy kelish), “ustun kuch” (hukmdordan odatlarga muvofiqligi va siyosiy ta’minlashi kutiladi) legitimatsiyalarini ustun qo‘yganliklarini ta’kidlaydi. Muallif Temur va Muhammad Rahimning umumiy jihatlari borligi: ikkalasi ham shariat bo‘yicha amir al-umaro sifatida qo‘g‘irchoq xonlarni tayinlab, chingiziylarga uylanish orqali chingiziylarga bog‘langanligi, Muhammad Rahim eng kuchsiz legitimatsiyaga ega bo‘lganligi, Muhammad Doniyol biy “bosh sarkarda” sifatida boshqarib, qo‘g‘irchoq chingiziy xonni taxtga o‘tqizganligi, Amir Haydar esa onasi tomonidan chingiziy, hatto Muhammad payg‘ambar avlodidan ekanligi eng kuchli legitimatsiya, Shohmurod esa kuchli elektoral legitimatsiyaga ega bo‘lganligini xulosa qilgan.

Ron Sela esa Muhammad Vafo Karminagiyning “Tuxfat al-xoniy” asariga asoslanib, Muhammad Rahim Alloh tomonidan tanlangan (yoki “taqdir” yoki unga shohlikni bergan “ilohiy farmon”), mamlakatni avvalgilarining buzuvchi hukmdorligidan ozod qilgan harbiy jasorat va fatx qilish ishlari orqali erishilgan o‘z xizmatlari va shaxsiy xarizmasidan foyda ko‘rganini (Ron Sela, 2003) ta’kidlaydi. Muallif, 1583-yilda Abdalloh xon taxtga o‘tirganidan boshlab, xonning taxtga ko‘tarilishi marosimining deyarli standart shakliga aylanganligi, kigiz ko‘taruvchilarining kimligi, ularning etnik yoki qabilaviy aloqalari va marosimdagi mavqei aniq belgilangan bo‘lsa-da, aslida ular doimo o‘zgarib turganligini ko‘rsatadi. Ron Selaning yozishicha, taxtga chiqish marosimi bo‘yicha oldingi nashrida (Ron Sela, 2003) marosimning yuziyilliklar davomida o‘tkir tabiatini ko‘rsatish bo‘lgan bo‘lsa, keyingi nashrida 18-yuziyillikda yangi goyaning joriy etilishini va uning oldingi vahiylardan farqini (Ron Sela, 2004) ta’kidlagan. Ron Selaning “Markaziy Osiyo 18-yuziyillikda: kuzatish davri” nomli dissertatsiyasida mang‘it sulolasining birinchi vakili Muhammad Rahim xonga bag‘ishlab 18-yuziyillikda yozilgan Mir Muhammad Vafoyi Karminagiyning “Tuxfat al-xoniy” yoki “Tarixi Rahimxoniy” deb nomlangan rasmiy tarix asariga asoslanadi va uning toj kiyish marosimiga bag‘ishlangan qismining to‘liq tarjimai ham berilgan. Muallif yana “manbalarimizda yangi xonni ko‘tarish uchun zarur bo‘lgan odamlar sonining o‘zgarishi, yetti namatchi kerak bo‘lgan marosimdan to‘rt kishi qatnashadigan marosimga o‘tgani haqida ham ishora qilinadi. Bu o‘zgarish to‘rtta urug‘lar mavqeining ortib borayotgan ahamiyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Temuriylardan keyingi davrda biz ulamolar ishtirokida va artefaktlarni islomlashtirish (ehtimol, marosimdagi ayollar rolini kamaytirish) orqali marosimning islomiy jihatlari paydo bo‘lgan (Ron Sela, 2004), degan fikrni ta’kidlaydi. Haqiqatan ham mang‘itlarning dastlabki davlat boshqaruvida qonuniylik, xalqning hukmdorni tan olish an’anasi ya’ni hukmdor bo‘lish uchun chingiziy bo‘lish sharti kuzatiladi. Muhammad Rahim bu an’anani o‘zgartirgan. Muhammad Rahim “xon” bo‘lganicha, taxtda qo‘g‘irchoq chingiziyni saqlaganligi

haqidagi fikrlar manbalarda mavjud. Ko'pgina adabiyotlarda hukmdorni va mavjud urf-odatni an'analardan kelib chiqqan holda (ya'ni oq kigizga o'tqizib uni aylantirish va ko'k toshga o'tqazish udumi, xutba o'qitish va tanga zarb etish orqali) qabul qilingani va hokimiyat shar'iy yoki qonuniy (legitim) hisoblanganligi kabi fikrlar mavjud. Bu haqida batafsil qarang. (Masaliyeva O. (1999, 2024).

Harbiy sohada esa Amir Temurning qo'shinni o'nlik tizimida tashkil etishi va jang maydonida barang'ar (o'ng qanot), javong'ar (chap qanot) hamda g'ul (markaz) kabi qismlarga bo'lib boshqarish taktikasi Buxoro qo'shinining doimiy strategiyasiga aylandi. Bu taktik izchillik xonlikka ichki nizolarni jilovlash va tashqi tahdidlarga qarshi turishda muhim ustunlik berdi.

Gülay Karadağ Çınarning maqolasida "turkiy urf-odatlar, islom qonunlari, Chingiziy qonunlari, temuriylar davlat tartibi, shayx ul-islom va davr ulamolarning fatvosi sifatida sanab o'tish mumkin bo'lgan ba'zi unsurlar hokimiyat sohasiga ta'sir ko'rsatadigan doiralarni cheklab qo'yganligi, sulolalar oilasining qarorlari va shu bilan o'zboshimchaliklarning oldini olganligi o'tgan davr sayohatchilari tomonidan sezilmagan, to'g'rirog'i, mavjud tuzilmaning e'tibordan chetda qolgani, buning despotizm bilan izohlanishiga sabab bo'lgan bo'lsa kerak (Gülay Karadağ Çınar, 2017), deb fikr bildirgan.

Amir Temurning tasavvuf pirlariga, xususan, Naqshbandiya tariqatiga bo'lgan ehtiromi Buxoro xonlari hayotining ajralmas qismiga aylandi. Temur davrida boshlangan ziyoratgohlarni obod qilish an'anasini Shayboniylar va Ashtarxoniylar, mang'itlar sulolasi davom ettirib, uni davlatning diniy markaziga aylantirishgan. (O.Masaliyeva, 2025).

Amir Temurning Mir Sayid Baraka bilan aloqasi Buxoro xonlari va Jo'ybor xojalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka model bo'lib xizmat qilgan.

Россиялик олим В.В.Норикнинг "Xasan Nisoriy i Mutribiy Samarqandiy tazkiralari 16-17 -yuzyillik birinchi choragida Movarounnahrdagi yozuv madaniyati bo'yicha manba sifatida" nomli tadqiqotida "Ashtarxoniylar Temuriylar va Shayboniylarning an'anasini davom ettirdilar. Ayniqsa Imom Quli xon va Nadir Muhammad xonlar alohida ajralib turadi... Buxoro adabiy mahsuloti soni va sifati bo'yicha Samarqanddan biroz balandroqda turadi"(B.V.Norik, 2005), deb xulosa beradi.

K.Abaza tomonidan tuzilgan "Turkistonning zabt etilishi. Harbiy tarixdan hikoyalar, tabiat ocherki, mahalliy aholining turmushi va odatlarining ommabop bayoni" ocherkida Amir Muzaffar faoliyatiga berilgan bahoni uchratish mumkin. Rus qo'shinlari bilan birinchi to'qnashuvdan oldin ham "Muzaffar Tamerlan podshohligini barcha ulug'vorligida tiklashni niyat qildi.. U "shohlar

shohining”ning kuchiga ham, iste’dodiga ham ega bo’lmagan holda, zo’ravonlik va hiylanayrangga qo’l urdi” (K.K.Abaza, 1902), deydi.

Iqtisodiy sohada esa Temurning infratuzilmani rivojlantirish siyosati Buxoro hukmdorlari tomonidan izchil davom ettirildi. Savdo yo’llarida qurilgan ko’plab karvonsaroylar, sardobalar va sug’orish tizimlari Sohibqironning “obodlik” konsepsiyasiga asoslangandi. Mir Arab madrasasi va Ko’kaldosh madrasasining qurilish uslubida Temuriylar davri me’morchilik maktabining bevosita ta’siri yaqqol ko’rinadi.

Xulosa. XVI asrda hokimiyat tepasiga kelgan shayboniylar va keyinchalik ashtarxoniylar, mang’itlar sulolasi Amir Temurning davlatni boshqarish borasidagi strategik yondashuvlarini nafaqat saqlab qoldilar, balki o’z davrlariga moslashtirgan holda rivojlantirdilar. Bu vorislik eng avvalo siyosiy legitimlik masalasida yaqqol namoyon bo’ladi. Buxoro xonlari, garchi Chingiziylar avlodidan bo’lsalar-da, o’zlarini Sohibqironning siyosiy vorislari deb hisoblashgan va “Temur tuzuklari”ni davlatni idora etishdagi bosh qo’llanma sifatida qabul qilishgan.

Amir Temur siyosati Buxoro xonlari uchun shunchaki o’tmish xotirasi emas, balki ularning hokimiyatini ma’naviy va siyosiy jihatdan asoslovchi, jamiyatni birlashtiruvchi qudratli vosita bo’lib xizmat qildi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdurahmon Tamkiniy. (Qo’lyozma). Matoli’i al-foxira va matolib al-zohira. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida 8245 raqami ostida saqlanmoqda.
2. Азамат Зиё Хамид ўғли. (1999). Из истории узбекского государственности (с древнейших времен до завоевания Россией): автореф. дис. ... док. ист. наук. – Ташкент, – 60 с.
3. Азамат Зиё. (2001). Ўзбек давлатчилиги тарихи: (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). – Тошкент: Шарқ, – 368 б.
4. Gülay Karadağ Çınar. (2017). 1619. Yüz yıllarda Avrupa’da Özbek İmajı // Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi // Journal of Turkish History Researches, Yıl / Vol. 2, Sayı / No.2 Güz / Fall. – S.66-108.
5. Завоевание Туркестана. (1902). Рассказы изъ военной истории, очерки природы, бта и нравовъ туземсевь-въ общедоступномъ изложении. Составил К.К.Абаз. – С.Петербург,– 310 с.
6. Кюгелген А. (2004). Легитимация среднеазиатской династии Мангитов в произведениях их историков (XVIII–XIX вв.). – Алматы: Дайк-Пресс, – 516 с.

7. Масалиева О. (1999). История Бухарского, Хивинского и Кокандского ханств в англо-американской историографии XX века. – Ташкент.
8. Masaliyeva O. Masalievna. (2025). State administration and divans: terms and structure. *International Journal Of History And Political Sciences* 5 (03), 40-43.
9. Masaliyeva O. (2025). Buxoro xonligi manbashunosligi va tarixshunosligi (20 – 21-yuzyillik boshlari). *Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi*. – Toshkent.
10. Masaliyeva O. (2024). Buxoro xonligi manbashunosligi hamda Vatan va xorijiy tarixshunosligining rivojlanish muammolari (XX – XXI asr boshlari) / *Monografiya*. – Toshkent: FAST SUPPORT AND RESULT, – 240 b.
11. Муқимов З. (2007). Шайбонийлар давлати ва ҳуқуқи. *Тарихий-ҳуқуқий тадқиқот*. – Тошкент: «Адолат», – 156 б.
12. Норик Б.В. (2005). Антологии Хасана Нисари и Мутриби Самарканди как источники по истории письменной культуры Мавераннахра ХВИ - первой трети ХВИИ вв.: автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Санкт-Петербург, – С.17-18.
13. Nurten Kiliç. (1999). *Siyasal kültürde Değişim: Şeybani Han ve Özbek siyasal Oluşumu (1500-1510)*. *Basilmamis Doktora Tezi, AÜ SBE*, – Ankara, – 283 s.
14. Ron Sela. (2003). *Ritual and Authority in Central Asia: The khan's inauguration ceremony // Papers on Inner Asia of the Research Institute for Inner Asian Studies at Indiana University*. – Bloomington. Indiana, – P.20.
15. Ron Sela. (2004). *Central Asia in the 18 th century: the age of introspection: Ph.D. Dissertation, Indiana University*, – P.64.
16. Холиқова Р. (2005). Россия-Бухоро: тарих чоррахасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бoshлари). – Тошкент, – Б.62- 69;153-163.
17. Ҳофиз таниш ал-Бухорий. (1999). Абдулланом (‘‘Шарафномаи шоҳий’’). Биринчи китоб. Форс тилидан С.Мирзаев тарж.; сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов. –Т.: Шарқ, Б.53,137.